



ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>



THE POLITICAL STRUCTURE OF TURKIC TRIBES IN CENTRAL ASIA DURING THE 9TH–12TH CENTURIES (Based on Arabic Sources)

Shokir Tokhirovich Zokirov

PhD in History

History teacher at Specialized Secondary School No. 27

Email: Shokirzokir58@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, 9th–12th centuries, Turkic tribes, political structure, Arabic sources, tribal alliances, migration, historiography.

Received: 04.10.25

Accepted: 05.10.25

Published: 06.10.25

Abstract: The article examines the political structure of Turkic tribes in Central Asia during the 9th–12th centuries based on Arabic sources. The works of authors such as Ibn Khordadbeh, al-Ya'qubi, al-Istakhri, Ibn Hawqal, and al-Muqaddasi are analyzed to explore the political system, tribal alliances, territorial migrations, and relations of Turkic tribes with neighboring states. Furthermore, the historical reliability of these Arabic sources is evaluated in comparison with modern research, highlighting the role of Turkic tribes in the political history of Central Asia.

IX–XII ASRLARDA O'RTA OSIYO TURKIY QABILALARINING SIYOSIY TUZILISHI (arab tilidagi manbalar tahlili asosida)

Shokir Toxirovich Zokirov

*27-ayrim fanlar chuqurlashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi t.f.n.*

Email: Shokirzokir58@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'rtal Osiyo, IX–XII asrlar, turkiy qabilalar, siyosiy tuzilma, arab manbalari, qabilaviy ittifoqlar, migratsiya, tarixshunoslik.

Annotatsiya: Maqolada IX–XII asrlarda O'rtal Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilishi arab manbalari asosida tahlil qilinadi. Ibn Xurdodbek, Al-Ya'qubiy, Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy kabi mualliflarning asarlari asosida turkiy qabilalarning siyosiy tizimi, qabilaviy ittifoqlari, hududiy migratsiyalari, qo'shni davlatlar bilan aloqalari

yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy tаддиқотчиларингиз изланышлари асосида араб манбасининг тарихий исхончлигига баҳоланади ва туркий қабилаларингиз Орта Осиё сиёсий таридаги орни көрсатиб берилади.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ТЮРКСКИХ ПЛЕМЁН СРЕДНЕЙ АЗИИ В IX–XII ВЕКАХ

(на основе арабских источников)

Шокир Тохирович Закиров

кандидат исторических наук

Учитель истории специализированной общеобразовательной школы №27 с углублённым изучением отдельных предметов

Email: Shokirzokir58@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Средняя Азия, IX–XII века, тюркские племена, политическая структура, арабские источники, племенные союзы, миграция, историография.

Аннотация: В статье анализируется политическая структура тюркских племён Средней Азии IX–XII веков на основе арабских источников. Рассматриваются сведения таких авторов, как Ибн Хордадбех, аль-Якуби, аль-Истахри, Ибн Хаукалъ и аль-Мукаддаси о политической системе, племенных союзах, территориальных миграциях и отношениях тюркских племён с соседними государствами. Кроме того, на основе современных исследований оценивается историческая достоверность арабских источников и определяется роль тюркских племён в политической истории Средней Азии.

Kirish. IX–XII asrlar Oрta Osiyo tarixi uchun muhim davr hisoblanadi. Ushbu davrda turkiy қабилалар сиёсий ва ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etgan, ularning қабилавиyl tuzilmalari, ittifoqlari va hududiy migratsiya jarayonlari mintaqaning siyosiy xaritasini shakllantirishda muhim rol oynagan. Shu bilan birga, bu davr arab manbalarida keng yoritilgan bo‘lib, turkiy қабилаларингиз тизими, hokimiyat tuzilmasi, қабилаларaro aloqalar va hududiy nazoratga oid ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Arab olimlari, masalan, Ibn Xurdodbek, Al-Ya’qubiy, Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy o‘z asarlarida Oрta Osiyo turkiy қабилаларининг siyosiy tuzilmasini, қабилавиyl ittifoqlar va davlatlararo aloqalarni tasvirlab beruvchi bir qator m'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu manbalar nafaqat tarixiy faktlar, balki etnografik, geosiyosiy va iqtisodiy jihatlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, IX–XII asrlarda O‘rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilmasini arab manbalari asosida o‘rganish mavzusi dolzarb hisoblanadi. Bu tadqiqot nafaqat tarixiy va etnografik bilimlarni boyitadi, balki turkiy qabilalarning siyosiy faoliyati va mintaqqa tarixini chuqrroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi IX–XII asrlarda O‘rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilmasini arab tilidagi tarixiy manbalar asosida tizimli tahlil qilishdir. Tadqiqot orqali turkiy qabilalarning qabilaviy va davlat tuzilmasi, siyosiy ittifoqlari, hududiy migratsiya jarayonlari hamda ularning qo‘sni xalqlar va davlatlar bilan aloqalari aniqlanadi.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- IX–XII asrlarga oid arab manbalarini tanlash va ularning siyosiy ma’lumotlarini tizimlashtirish;
- turkiy qabilalarning siyosiy tuzilmasi va qabilaviy ittifoqlarini manbalar asosida tasvirlash;
- hududiy va siyosiy aloqalarni, shuningdek, qabilalarning davlat va shahar siyosatidagi rolini tahlil qilish;
- arab manbalaridagi siyosiy voqealarni zamonaviy tadqiqotlar bilan solishtirish va ularning tarixiy ishonchligini baholash;
- tadqiqot natijalarini O‘rta Osiyo tarixshunosligi va etnologiyasiga integratsiya qilish.

Shu tarzda, maqola turkiy qabilalarning siyosiy tuzilmasini chuqr o‘rganishga, manbalarning ilmiy ahamiyatini aniqlashga va IX–XII asr O‘rta Osiyo siyosiy tarixini yaxlit ko‘rinishda tasvirlashga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda asosiy manba sifatida IX–XII asrlarda yashab ijod qilgan arab olimlarining tarixiy va geografik asarlari qabul qilindi. Jumladan:

1. Ibn Xurdodbek (Kitab al-Masalik va-l-Mamalik) – O‘rta Osiyo turkiy qabilalarining hududiy joylashuvi, savdo yo‘llari va qabilalararo siyosiy aloqalari haqida ma’lumot beradi.
2. Al-Ya’qubiy (Tarix) – turkiy qabilalarning siyosiy tizimi, qabilaviy ittifoqlar va davlatlararo aloqalarni tasvirlaydi.
3. Al-Istaxriy va Ibn Havqal (Kitab al-Masalik va-l-Mamalik) – hududiy xaritalar, qabilalarning iqtisodiy va siyosiy salohiyatini yoritadi.
4. Al-Muqaddasiy (Ahsan al-Taqqasim fi Ma’rifat al-Aqalim) – shaharlar, hokimiyat markazlari va qabilaviy boshqaruv tizimi haqida ma’lumot beradi.

Manbalarni tanlashda ularning tarixiy aniqligi, etnografik ma’lumotlarning to‘liqligi va siyosiy jarayonlarni yoritishdagi o‘ziga xosligi inobatga olindi.

Tadqiqotda manbalarni tarixiy kontekstda tahlil qilishda tarixiy-metodik yondashuvdan, qabilalarning siyosiy va ijtimoiy hayotini etnografik jihatdan yoritishda etnografik metoddan, arab manbalaridagi ma'lumotlarni bir-biri bilan solishtirish va zamonaviy tadqiqotlar bilan tekshirishda komparativ tahlil usulidan hamda manbalarning ishonchliligi, xolisligi va ularning yozilish sharoitlarini hisobga olishda tanqidiy yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Shu metodlar yordamida maqola IX–XII asrlarda O'rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilmasini to'liq va tizimli tarzda o'rganishga qaratilgan.

IX–XII asrlarda yashagan arab tarixchilari va geograflari O'rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilmasini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ularning asarlari nafaqat tarixiy voqealarini, balki hududiy joylashuv, iqtisodiy aloqalar, ijtimoiy tuzilma va madaniy xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi. Quyida asosiy manbalar va ularning ahamiyati keltirilgan.

Ibn Xurdodbekning Kitab al-Masalik va-l-Mamalik asari IX asrda yozilgan bo'lib, unda musulmon dunyosining savdo yo'llari, viloyatlar va ularning o'zaro aloqalari tasvirlangan. O'rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilmasi haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Masalan, u O'g'uzlar va boshqa turkiy qabilalarning yashash hududlari, ularning boshqaruv tizimi va iqtisodiy faoliyatini bataysil bayon etadi. Ibn Xurdodbekning asari, shuningdek, turkiy qabilalarning musulmonlar bilan aloqalari, ularning islomga qabul qilinishi jarayonini ham yoritadi [1. 45–67.].

Al-Ya'qubiyning Tarix asari arab tarixining muhim manbalaridan biri bo'lib, sof tarixiy xarakterga ega bo'lib, unda turkiy qabilalarning siyosiy tuzilmasi haqida ma'lumotlar beriladi. U qabilaviy boshliqlar va ularning o'zaro aloqalarini tasvirlab, turkiylarning qo'shni xalqlar bilan diplomatik va harbiy munosabatlariiga to'xtaladi. Al-Ya'qubiy asarlarida diniy omil ham kuchliroq yoritilgan: u turkiy qabilalar orasida islomning tarqalish jarayonini tarixiy voqealar bilan bog'lab beradi [2. 112–134.].

Al-Istaxriyning Kitab al-Masalik va-l-Mamalik asari Ibn Xurdodbekdan keyingi davr uchun yangilangan va kengaytirilgan geografik qo'llanma sifatida qaraladi. Uning asarida O'rta Osiyo shaharlarining joylashuvi, qabilaviy hududlar, savdo yo'llari va iqtisodiy aloqalar bataysil bayon etilgan. Ayniqsa, u kartografik tasvirlar orqali turkiy qabilalarning siyosiy geografiyasini yanada aniqroq ko'rsatib beradi [3. 78–90.].

Ibn Havqal (X asr oxiri) ham shu nomli asarini yozib, Al-Istaxriyning kitobini qayta ishlagan. Uning farqi shundaki, u ko'plab hududlarni shaxsan sayohat qilib ko'rgan va o'z kuzatuvlari asosida ma'lumotlarni boyitgan. Masalan, turkiy qabilalarning iqtisodiy faoliyati va shaharlar bilan aloqalari haqida Al-Istaxri ma'lumotlarini to'ldirib, real voqealarga asoslangan

qo'shimchalar kiritadi. Shu bois, Ibn Havqal manbasi tarixiy ishonchlilik nuqtayi nazaridan yanada boyroqdir [4. 102–115.].

Al-Muqaddasiy (X asr)ning Ahsan al-Taqasim fi Ma'rifat al-Aqalim asari esa boshqa geograflardan farqli ravishda, nafaqat hududiy tasvir, balki aholining ijtimoiy hayoti, diniy qarashlari va madaniy xususiyatlariiga ham e'tibor qaratadi. U Mavarounnahr va unga tutash hududlarda turkiy qabilalarning siyosiy faoliyatini, shahar hayoti va iqtisodiy integratsiyadagi rolini alohida qayd etadi [5. 60–65.].

IX–XII asrlarda O'rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilmasi murakkab va qatlamlili bo'lib, qabilaviy boshqaruv tizimi, qabilaviy ittifoqlar va davlatlararo aloqalarni o'z ichiga olgan. Arab manbalari bu jarayonlarni batafsil yoritib, turkiy qabilalarning siyosiy hayotini tushunishga imkon beradi.

Turkiy qabilalar o'zaro ittifoq va raqobat orqali siyosiy barqarorlikni ta'minlagan. Ibn Xurdodbek va Al-Ya'qubiyning yozuvlarida Qarluq, O'g'uz, Xazar va boshqa turkiy qabilalarning hududiy joylashuvi va qabilaviy ittifoqlari batafsil tasvirlangan. Masalan, Ibn Xurdodbek Qarluq qabilasining Mavarounnahr va Sirdaryo havzasidagi siyosiy va iqtisodiy roli haqida yozadi [6. 50–52.].

Qabilaviy ittifoqlar qabilalarning o'zaro siyosiy kelishuvlari, hududiy nazorati va qo'shin tuzilishi orqali shakllangan. Al-Ya'qubi turkiy qabilalararo ittifoqlarning shaharlar va savdo yo'llari nazoratidagi rolini yoritadi [7. 120–123.].

Turkiy qabilalarda hokimiyat boshliqlar va ularning vakolatlari orqali amalga oshirilgan. Al-Istaxriy va Ibn Havqalning yozuvlarida har bir qabila boshlig'i (kagan – xoqon – yoki bey) qabilaning ichki va tashqi siyosatini boshqarishi, qishloqlar va savdo yo'llari ustidan nazorat o'rnatishi ta'riflanadi [8. 105–108].

Hokimiyat tizimi ko'pincha qabilaviy konsensus va maslahat organlari orqali mustahkamlangan. Qabila boshlig'i faqat siyosiy emas, balki harbiy va iqtisodiy faoliyatni ham boshqarardi.

Turkiy qabilalarning siyosiy tuzilmasi harbiy salohiyat bilan chambarchas bog'liq edi. Arab manbalarida qabilalarning qo'shin tuzilishi, ularning Ipak yo'li va shaharlar ustidan nazoratidagi roli yoritilgan. Ibn Xurdodbek va Al-Muqaddasiyning yozuvlarida turkiy qabilalar o'z hududlarini himoya qilish, qo'shni qabilalar bilan ittifoqlar tuzish va iqtisodiy resurslarni nazorat qilish orqali siyosiy barqarorlikni ta'minlagani qayd etilgan [9. 60–65].

Turkiy qabilalarning siyosiy aloqalari nafaqat ichki qabilalar bilan, balki qo'shni davlatlar va musulmon shaharlar bilan ham shakllangan. Shu tarzda, qabilalarning siyosiy tuzilmasi,

ularning harbiy va iqtisodiy salohiyati, shuningdek, arab manbalarida qayd etilgan siyosiy jarayonlar orqali o'rganilishi mumkin.

Arab manbalari IX–XII asrlarda O'rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy jarayonlarini yoritishda noyob ilmiy manba hisoblanadi. Ular turkiy qabilalarning hududiy migratsiyasi, qabilaviy ittifoqlari, siyosiy integratsiyasi va qo'shni davlatlar bilan aloqalarini batafsil tasvirlaydi.

Ibn Xurdodbek va Al-Ya'qubiyning yozuvlarida turkiy qabilalar o'rtasidagi ittifoqlar siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagani qayd etilgan. Misol uchun, Qarluq va O'g'uz qabilalari o'rtasidagi ittifoqlar Ipak yo'li hududidagi savdo va harbiy nazoratni mustahkamlashga xizmat qilgan [10. 52–54].

Shuningdek, Al-Istaxriy va Ibn Havqalning yozuvlarida turkiy qabilalarning hududiy chegaralari, qo'shni xalqlar bilan aloqalari va siyosiy ta'sir doiralari batafsil tasvirlangan [11. 107–110].

Al-Muqaddasiy turkiy qabilalarning siyosiy va hududiy integratsiyasi jarayonlarini yoritadi. U qabilalarning Movarounnahr, Sirdaryo va Amudaryo havzalaridagi ko'chishlari, hududiy aloqalari va shaharlar bilan o'zaro munosabatlarini ta'riflaydi. Shu tarzda, qabilalarning migratsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jarayonlarni ham shakllantirgan [12. 62–66].

Arab manbalari turkiy qabilalarning siyosiy voqealarini yoritishda turli darajadagi tafsilotlarni beradi. Masalan, Ibn Xurdodbek qabilaviy ittifoqlar va ularning harbiy salohiyatini, Al-Ya'qubi qabilaviy boshliqlar va ularning siyosiy qarorlarini qayd etadi. Shu bilan birga, manbalarni tanqidiy tahlil qilish muhim, chunki ba'zi ma'lumotlar mintaqaga masofadan kelgan mualliflarning kuzatuvlariiga asoslangan [13. 45–48].

Natijada, arab manbalari orqali turkiy qabilalarning siyosiy tuzilmasi, ularning ittifoqlari, hududiy migratsiyasi va qo'shni xalqlar bilan aloqalari tizimli tarzda o'rganilishi mumkin. Bu manbalar nafaqat tarixiy faktlarni, balki siyosiy jarayonlarning murakkabligini ham ochib beradi.

Arab manbalari IX–XII asrlarda O'rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilmasini o'rganishda noyob ilmiy manba bo'lsa-da, ularning tarixiy ishonchliligin va tafsilotlarini yanada chuqurroq tushunish uchun zamonaviy tadqiqotlar bilan solishtirish muhimdir.

V.V. Bartold turkiy qabilalarning siyosiy tuzilmasini va ularning hududiy joylashuvini eng birinchilardan bo'lib arab manbalari asosida tahlil qilgan. Bartold Ibn Xurdodbek va Al-Istaxriy ma'lumotlarini solishtirib, qabilaviy ittifoqlar va ularning davlatlararo aloqalardagi rolini yoritadi [14.35–42].

C.E. Bosvort arab manbalaridagi ma'lumotlarni G'aznaviyilar imperiyasi va turkiy qabilalar munosabatlarini tahlil qilishda ishlatgan. U turkiy qabilalarning siyosiy boshliqlari, qo'shin tuzilishi va hududiy nazoratdagi roli haqida aniq misollar keltiradi [15. 50–54].

R.N. Frye turkiy qabilalarning davlatlararo siyosiy aloqalarini tahlil qilib, arab manbalarining siyosiy jarayonlarni yoritishdagi ahamiyatini ko'rsatadi [16. 46–49].

DeVeese esa turkiy qabilalarning Ipak yo'li va boshqa savdo yo'llaridagi siyosiy va iqtisodiy integratsiyasini arab manbalari yordamida o'rgangan [17. 32–37].

Zamonaviy tadqiqotlar arab manbalaridagi ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, ularning ishonchliligi va tarixiy kontekstini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, turkiy qabilalarning siyosiy tuzilmasini yanada batafsil va tizimli yoritishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilar arab manbalarini etnografik, siyosiy va iqtisodiy jihatlarini o'rganishda asosiy manba sifatida qabul qilganlar.

IX–XII asrlarda O'rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilmasini arab manbalari asosida o'rganish mintaqaning tarixiy va etnografik jihatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Ibn Xurdodbek, Al-Ya'qubiy, Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy asarlari turkiy qabilalarning hududiy joylashuvi, qabilaviy ittifoqlari, hokimiyat tizimi, harbiy va iqtisodiy faoliyatini yoritadi [18. 56–68].

Manbalar orqali turkiy qabilalarning siyosiy integratsiyasi, qo'shni xalqlar va davlatlar bilan aloqalari, qabilaviy boshliqlarning roli va ularning qabilaviy va shahar siyosatidagi funksiyalari aniqlanadi. Shu bilan birga, arab manbalari qabilalarning migratsiyasi, savdo yo'llari va hududiy nazoratdagi strategik ahamiyatini ham ochib beradi.

IX–XII asrlar O'rta Osiyo turkiy qabilalarining siyosiy tuzilishi masalasi o'zbek olimlari tomonidan ham qator tadqiqotlarda o'rganilgan. Mustaqillik yillarida bu davr tarixiga yangicha yondashuvlar shakllandi va arab manbalaridagi ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilishga katta e'tibor qaratildi.

Masalan, M. Qodirova Somoniylar davlati misolida IX–X asrlarda turkiy qabilalar siyosiy jarayonlarda faol qatnashganini alohida ta'kidlaydi. Uning yozishicha, "Somoniylar davlati ijtimoiy-siyosiy hayotida turkiy lashkarboshilar va qabila ittifoqlarining roli tobora kuchayib, ular davlat boshqaruvi tizimida ham muhim o'rin egallagan" [19.15].

Shuningdek, Sh. Kamoliddin arab manbalaridagi ma'lumotlarni solishtirgan holda, turkiy qabilalarning siyosiy va etnik tarkibini yoritadi. Unga ko'ra, "turkiy qabilalar faqat harbiy kuch emas, balki iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda ham faol qatnashib, o'z davrining siyosiy geografiyasini shakllantirgan" [20. 74].

O‘zbekistonlik tarixchilarning tadqiqotlarida, shuningdek, qabilaviy ittifoqlar va migratsiya jarayonlarining siyosiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rnini ham keng yoritilgan. “Qarluq va O‘g‘uz qabilalari ittifoqlari Ipak yo‘li savdo markazlarini nazorat qilish orqali mintaqaning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynagan” degan xulosaga kelinadi [21. 112].

IX–XII asrlarda O‘rta Osiyo turkiy qabilalari mintaqaning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o‘rin egallagan. Ularning siyosiy tuzilishi murakkab va ko‘p qatlamlili bo‘lib, qabilaviy boshqaruv, ittifoqlar, hududiy migratsiya jarayonlari hamda qo‘shti davlatlar bilan aloqalar asosida shakllangan. Arab tarixchilari va geograflari – Ibn Xurdodbek, Al-Ya’qubiy, Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy asarlarida bu jarayonlar keng yoritilgan va turkiy qabilalarning hokimiyat tizimi, iqtisodiy faoliyati, shaharlar va savdo yo‘llaridagi o‘rnini haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirilgan.

Xulosa: Turkiy qabilalar siyosiy tuzilmasining muhim xususiyati – ittifoqlar orqali siyosiy barqarorlikni ta’minlash va harbiy-iqtisodiy salohiyatni mustahkamlash bo‘lgan. Qarluq, O‘g‘uz, Xazar kabi qabilalar o‘zaro hamkorlik va raqobat asosida mintaqqa tarixiy jarayonlarini belgilagan. Shuningdek, ularning islom madaniyatiga qo‘shilishi, savdo yo‘llarini nazorat qilishi va davlatlararo diplomatik aloqalarda faol qatnashishi O‘rta Osiyoning o‘scha davrdagi siyosiy geografiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lgan.

Zamonaviy tadqiqotlar (V.V. Bartold, C.E. Bosvort, R.N. Frye, Sh. Kamoliddin va boshqalar) ham arab manbalaridagi ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilib, turkiy qabilalarning siyosiy tuzilishi, davlatlararo aloqalari va mintaqadagi rolini chuqurroq yoritib berdi. Shunday qilib, IX–XII asr turkiy qabilalari nafaqat mintaqqa tarixining ajralmas qismi, balki O‘rta Osiyoda siyosiy tuzilmalar, davlatlararo integratsiya va etnik-siyosiy jarayonlarning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibn Khordadbeh. Kitab al-Masalik va-l-Mamalik. – Leiden: Brill, 1889. – P. 45–67.
2. Al-Ya’qubi. Tarix. Beirut: Dar Sadir, 1960. – P. 112–134.
3. Al-Istakhri. Kitab al-Masalik va-l-Mamalik. Leiden: Brill, 1870, – P. 78–90.
4. Ibn Havqal. Kitab al-Masalik va-l-Mamalik. Leiden: Brill, 1873, – P. 102–115.
5. Al-Muqaddasi. Ahsan al-Taqqasim fi Ma‘rifat al-Aqalim. Beirut: Dar Sadir, 1960, – P. 60–65.
6. Ibn Khordadbeh. Kitab al-Masalik ... – P. 50–52.
7. Al-Ya’qubi. Tarix... – P. 120–123.

8. Al-Istakhri, Kitab al-Masalik va-l-Mamalik, Leiden: Brill, 1870, – P. 80–85; Ibn Havqal, Kitab al-Masalik va-l-Mamalik, Leiden: Brill, 1873, – P. 105–108
9. Al-Muqaddasi, Ahsan al-Taqqasim fi Ma‘rifat al-Aqalim, Beirut: Dar Sadir, 1960, – P. 60–65
10. Ibn Khordadbeh, Kitab al-Masalik va-l-Mamalik, Leiden: Brill, 1889, – P. 52–54; Al-Ya’ubi, Tarix, Beirut: Dar Sadir, 1960, – P. 125–128
11. Al-Istakhri, Kitab al-Masalik va-l-Mamalik, Leiden: Brill, 1870, – P. 83–88; Ibn Havqal, Kitab al-Masalik va-l-Mamalik, Leiden: Brill, 1873, – P. 107–110
12. Al-Muqaddasi, Ahsan al-Taqqasim fi Ma‘rifat al-Aqalim, Beirut: Dar Sadir, 1960, – P. 62–66
13. Frye R.N., The Golden Age of Persia, London: Veidenfeld and Nicolson, 1975, – P. 45–48
14. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963. – С. 35–42.
15. Bosvorth, C.E. The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran 994–1040, – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1963. – P. 50–54.
16. Frye R.N. The Golden Age of Persia, – London: Veidenfeld and Nicolson, 1975, – P. 46–49)
17. DeVeese D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde, University Park: Penn State University Press, 1994. – P. 32–37
18. Ibn Khordadbeh, 1889, – P. 45–67; Al-Ya’ubi, 1960, – P. 112–134; Al-Istakhri, 1870, – P. 78–90; Ibn Havqal, 1873, – P. 102–115; Al-Muqaddasi, 1960, – P. 56–68
19. Qodirova, M. IX–XII asrlarda turkiy xalqlar davlatchiligi taraqqiyoti (Somoniylar davlati). Universal Conference, №3, – 2022. – Buxoro. – B. 15.
20. Камолиддин, Ш.С. Средневековая история Средней Азии в арабских источниках. Toshkent: Fan. 2001. – С. 74.
21. O‘zbekiston qadimgi va o‘rta asrlar tarixi. Toshkent: Fan va texnologiya. 2019. – B. 112.